O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 26-avgust | 450-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 6-avgustdagi 03-RA 2/1-2165/10-son topshirig‘i ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-57-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 6-avgustdagi 03-RA 2/1-2165/10-son topshirig‘i ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 28- va 147-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 6-avgustdagi 03-RA 2/1-2165/10-son topshirig‘i bilan mahalliy byudjet hisobidan Quvasoy shahridagi ko‘cha yoritkichlarini to‘liq energiya tejamkor quyosh panelli yoritkichlarga almashtirish belgilanganligi, bunda mazkur maqsadlar uchun 4,8 mlrd.so‘m mablag‘ yo‘naltirish hisob-kitob qilinganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-sonli qarorining 11-bandida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlar bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlaridan qarzdorlik yoki (va) mahalliy byudjetlarning O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti oldida byudjet ssudalari bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik qoplanmasdan tegishli mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari mablag‘larini boshqa maqsadlarga yo‘naltirish taqiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev) Quvasoy shahar hokimining 2024-yil 23-avgustdagi 01-04/162-sonli murojaatiga ko‘ra Quvasoy shahridagi ko‘cha yoritkichlarini energiya tejamkor quyosh panelli yoritkichlarga almashtirish uchun 2,5 mlrd.so‘m mablag‘ni viloyat mahalliy

byudjetining issiqlik ta’minoti korxonalariga subsidiya xarajatlaridan Quvasoy shahar mahalliy byudjetiga o‘tkazib berilishini ta’minlasin.

4. Quvasoy shahar hokimligi (Z.To‘raqulov)ga:

ko‘cha yoritkichlarini energiya tejamkor quyosh panelli yoritkichlarga almashtirish uchun ajratiladigan mablag‘larni Obodonlashtirish boshqarmasi orqali maqsadli yo‘naltirish;

shahardagi ko‘cha yoritkichlarini to‘liq energiya tejamkor quyosh panelli yoritkichlarga almashtirish uchun qolgan mablag‘larni shahar mahalliy byudjetining 2024-yil 3-chorak yakuni bo‘yicha shakllanadigan qo‘shimcha manbalari, jumladan yer uchastkalariga bo‘lgan xuquqlarni sotishdan tushadigan pul mablag‘lari hamda mahalliy byudjet xarajatlarini maqbullashtirish orqali qoplash;

byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishni nazarda tutgan holda energiya tejamkor quyosh panelli yoritkichlar sotib olish va o‘rnatish bilan bog‘liq xarajatlar bo‘yicha shartnomalar tuzishda narxlarni suniy o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

5. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, Xalq deputatlari viloyat kengashi kotibiyati (Sh.Karimov) mazkur qaror asosida mahalliy byudjetlar xarajatlari rejasiga kiritilayotgan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobotni Xalq deputatlari viloyat kengashining navbatdagi sessiyasiga kiritilishini nazoratga olsin

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**